



O'SMIR YOSHDAGI O'QUVCHILARDA KREATIVLIKNI SHAKILLANTIRISH USULLARI

Аметова Мухаддас

Nukus shahar 38-maktab psixologi

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'smir yoshdagi o'quvchilarning kreativ fikrlashini shakillantirish, usullari bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan, kreativ fikrlashni baholash yo'nalishi haqida asosiy tushunchalar, baholashda e'tibor qaratiladigan muhim jihatlar va bohalash yondashuvlari keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: kreativlik, yondashuvlar, qobiliyat, layoqat, kreativ fikrlash.

Kirish. Zamonaviy axborat kommunikatsiya texnologiyalar olami juda tez rivojlanmoqda. Bugungi kunda zamon talablari bilan yashaydigan insonga internet ma'lumotlari uzatish tarmog'i odatiy bo'lib qolgan. Inson qayerda bo'lmasin yuqori texnologiyalar uning ajralamas qismi bo'lib qolgan. Kommunikatsiya texnologiyalari jamiyat rivojlanishi va odamlar hayot tarzini o'zgarishga ta'sir etuvchi muhim omillarning biri bo'lib qoldi. Ularni qo'llash jahon fan yutuqlarini samaraliroq ishlatalishga imkon beradi, biznesni samaraliroq yuritishning real imkonini yaratdi, odamlarning axboratlari o'zaro ishlashi va ularning mahalliy va jahon axborat resurslariga kirishni va ularni axborat xizmatlariga ijtimoiy shaxsiy ehtiyojlarini qoniqtirishini taminlaydi.

Zamonaviy an'anaviy ta'lim tizimi jiddiy qayta qurishni talab qiladi, chunki zamonaviy sharoitda informatsion va doimiy xarakterini taqqoslaydi, shaxsiy sharoitda va jamiyatni shakillantiradi, uslubiy tizimli ijodiy fikrlash bilan ijodiy shaxsiyat kerak. Bolani ijodkor shaxsga aylantirish pedagogik jarayon texnologiyasiga bog'liq bugungi ta'lim tizimida darslarni samarali tashkil qilish nafaqat o'qituvchiga, balki, o'quvchilarga ham bog'liqdir. O'quvchilar faol harakatchan va kreativ bo'lsalar, shu darslar samarali natija beradi. Ta'lim sohasidagi mutaxasislar va psixologlarning fikriga ko'ra, ijodiy faoliyat bilan bog'liq fikrlash jarayonlarida mashg'ul bo'lish, deb tushinilgan. Kreativ fikrlash bir qator boshqa shaxsiy ko'nikmalarning ham rivojlanishiga olib keladi. Shular jumlasiga, metakognitiv qobiliyat insonlar bilan muomala qilish va shaxsning o'zini yaxshiroq anglash ko'nikmalari muammoni hal etish ko'nikmalari kiradi. Shu bilan birga shaxs kamoloti, ta'lim olishdagi muvaffaqiyati, kelajakdagi kasbiy muvaffaqiyati va jamoatchilik orasidagi obro'si ham insonning kreativ fikrlash ko'nikmasiga bog'liq. Kreativ fikrlashda ta'limning asosiy vazifasi, o'quvchida jamiyatda muvaffaqiyatli hayot kechirishi uchun bugun va kelajakda kerak bo'ladigan ko'nikmalarni shakllantirishdir. Kreativ fikrlash bugungi yoshlar ega



bo`lishi kerak bo`lgan muhim ko`nikma bo`lib, bu ko`nikma ularga doimiy tarzda va shiddat bilan o`zgarayotgan, oddiy savodxonlikdan tashqari, yangilanayotgan davrga xos ko`nikmalarga ega kadrlarni talab etayotgan makonga moslashishga ko`maklashadi. Umuman olganda, bugungi o`quvchi kelajakda, hozir xatto mavjud bo`lmagan saholarda ishlashi, yangi muammolarni, yangi ko`nikmalarni shakllantirish ularga tabora murakkablashayotgan mahalliy glabol muammolarni noodatiy yondashuv orqali hal etish imkonini beradi. Maktabda kreativ fikrlashni rivojlanrishning ahamiyati faqatgina mehnat bozori bilan cheklanmaydi. Maktab yoshlar uchun o`z qobiliyat va ko`nikmalarini, shu jumladan, ijodiy iste`dodlarni kasb etishda muhim ahamiyatga ega. Kichik mакtab yoshidagi o`quvchilarning asosiy faoliyati o`qish hisoblanadi. O`qish faoliyati kichik mакtab yoshidagi o`quvchining aql-idroki, sezgirlingi, kuzatuvchanligi, eslab qolish, esga tushirish imkoniyatlarining rivojlanishi uchun muhim shart-sharoitlar – bola shaxsining rivojlanishi uchun muhim omil hisoblanadi. Shu yoshdagi bola idrokining o`tkirligi, ravshanligi, sofligi, aniqligi, xayolining yorqinligi, xotirasining kuchliligi, tafakkurning yoqqolligi, o`zining qiziquvchanligi, ishonuvchanligi bilan boshqa yoshdagi bolalardan farqlanadi, kichik mакtab davrida o`qish faoliyati bilan shug`illanish, jumladan, moddiy narsalarning har xil hossalari bilan tanishish sezgilarning o`sishiga katta ta`sir ko`rsatadi. Kichik mакtab yoshidagi o`quvchilarda, asosan, ko`rish va eshitish, farq qila olish sezgilari, ayniqsa, tez o`sadi. 7–10 yoshli bolalarda ranglarning tuslarini sezish umumiyl holda 45% ga, 10–12 yoshgacha bo`lgan bolalarda 65% gacha ortishi olimlar tomonidan aniqlangan. O`quvchilarni rasm chizishga o`rgatish, ranglarni farqlash sezgirlingining o`sishiga katta ta`sir ko`rsatadi. Ohanglarni farq qilish sezgirlingi, ayniqsa, bolalarga musiqa va ashula o`rgatish jarayonida kuchli suratda o`sadi, sezgilarning o`sishida, shuningdek, jismoniy tarbiya mashg`ulotlarining ham ahamiyati katta aniq harakat qilishga jalb etuvchi mashqlar bolalarning muskul harakat sezgilarini o`stiradi.

Xulosa, ijodiy sermahsullik bazaviy resurs, yohud sohaga bog`liq qobiliyatlar, jumladan, bilim va texnika ko`nikmalari bo`lib ularni yangicha usullarda birlashtirish uchun kerak bo`ladigan qobiliyatlar tayyor qo`llanmalardan vos kecha olish, kabi zarur motivatsiyani taqoza etadi. Bu to`rt komponentlardan iborat o`quvchilarning kreativ fikrlash ko`rsatkichlari ularning tadqiqotchilik qobiliyatlariga qanday bog`liq ekanligini tahlil etish ham o`rinlidir. Xuddi, o`quvchi ishtiyoqini o`lchaydigan uslub kabi, uning tadqiqotchilik qobiliyatini ham kompyuterlashgan testdagи xatti-harakatini kuzatishdan olingan(telemetriya) ma`lumotlar asosida tahlil qilish mumkin.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Egamberdiyeva .N, Xodjayev B. Pedagogikaning ayrim dolzARB muammolari: mohiyat talqin va yechim, Fan va texnologiya 2013
2. Ismailov A. Kreativ fikrlashni baxolash. “Toshkent ta’lim sifatini baxolash bo`yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazining matbaa bo`limi” 2021
3. Karimov I. Yuksak manaviyat yengilmas kuch. Manaviyat 2008
4. [http:// Lex.uz](http://Lex.uz)
5. <https://moluch.ru/archive/449/98832/>
6. <https://uz.Wikipedia.org/wiki/PIRLS>